

## ZAMONAVIY YOSHLAR DUNYOQARASHI VA MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TEATRNING O'RNI

*Hamitova Sunbula Bahodir qizi*

*Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi o'qituvchisi*  
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.01.1.134>

*Annotatsiya. Zamonaviy yoshlar dunyoqarashini va ma'naviyatini shakllantirishda teatr san'atining o'rni beqiyos. Teatrda, spektakllar namoyishi orqali tomoshabinlarga nimanidir aytadi. Teatr tomoshalari orqali inson o'zini-o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, yoshlar imkoniyatini ro'yobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari etaklaydi. Umuman olganda teatr san'ati, bugungi kun kishisini o'z hayotida sog'lom muhit tashkil etishida muhim omillardan biri hisoblanadi.*

*Katil so'zlar: Teatr, spektakl, yoshlar ma'naviyati, tarbiya, tomosha, jamiyat, ijodkor, pyesa, syujet, kompozitsiya.*

## РОЛЬ ТЕАТРА В ФОРМИРОВАНИИ МИРОВОЗЗРЕНИЯ И ДУХОВНОСТИ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЕЖИ

*Хамитова Сунбула Бахадировна*

*Преподаватель Бухарского государственного университета кафедры музыкального исполнения и культура*

*Аннотация: Неоценима роль театрального искусства в формировании мировоззрения и духовности современной молодежи. В театре он что-то говорит публике через постановку пьес. Через театрализованные представления человек подготавливает почву для небольшой коррекции, перевоспитания, реализации потенциала молодежи, ведет к совершенствованию. В целом театральное искусство – один из важнейших факторов создания здоровой среды в современной жизни.*

*Ключевые слова: Театр, спектакль, духовность молодежи, воспитание, спектакль, общество, творец, пьеса, сюжет, композиция.*

## THE ROLE OF THEATER IN SHAPING THE WORLDVIEW AND SPIRITUALITY OF MODERN YOUTH

*Khamitova Sunbula Bahadyrovna*

*Teacher at Bukhara State University, Department of Musical Performance and Culture*

*Abstract: The role of theatrical art in shaping the worldview and spirituality of modern youth is invaluable. The theatre says something to the audience through his performances in the theater. Through theatrical performances, a person prepares the ground for self-correction, re-education, realization of the potential of young people, leads to perfection. In general, theatrical art is one of the most important factors in creating a healthy environment in one's life today.*

*Key words: Theater, performance, youth spirituality, upbringing, spectacle, society, creator, play, plot, composition.*

Yoshlar ma'naviyati deganda, tasavvurimizda ularning xulqi, ma'naviyati va odob-ahloqi gavdalanadi. Bular o'z-o'zidan ota-ona tarbiyasi, mahalla-ko'y nazorati, ilm dargohlaridan olgan ta'lim-u, hayotiy kuzatishlar orqali shakllanadi va butun umri davomida mayoq sifatida gavdalanadi. Yana bir maskan borki, hayotning qiziqarli-yu ajoyib g'aroyibotlarga boy sehrli hayoti namoyon bo'ladi. Zamonaviy yoshlarning ma'naviyatini shakllantirishda ularga bevosita tarbiyaviy spektakllarning o'rni nihoyatda beqiyos. Zamonaviy yoshlar deganda, ikki-uch tilni mukammal biladigan, o'z oldiga aniq va puxta rejalar qo'ygan va bu maqsadi sari og'ishmay harakat qiladigan tengdoshlarim, zamondoshlarim shakllanadi.

“Teatr – tarbiya maskani. Yoshlarimizni turli mafkuraviy tahdidlar va g'araz niyatli kuchlardan, ta'sirlardan asrab-avaylashga ustuvor ahamiyat qaratmoqdamiz. Yoshlarni to'g'ri

yo'lga boshlashda pand-nasihati bilan kifoyalanib bo'lmaydi. Ezgulikni, vatanparvarlikni, insoniy fazilatlarini kamol toptirishga xizmat qiladigan amaliy ishlar qilish kerak. Ana shunday amaliy tarbiya omillaridan biri teatrdir." Bejizga, Teatr – jamiyat hayotining ko'zgusi deyilmaydi. O'qishga qiziqmaydigan, qo'lga umuman kitob olmaydigan o'quvchilarni ham teatr orqali o'qishga qiziqтира olish mumkin.

Yoshlarga hayot haqiqati borasidagi tushunchalarini to'g'ri anglatish teatr san'atining eng oliy maqsadi bo'lib kelgan. Albatta, hayotning o'zi yaratgan eng oliy maqsadi bor. Biroq, uni yosh tomoshabinga etkazish uchun butun boshli fidoyi ijodkorlar jamoasi bo'lish kerak. Shu jumladan, teatr ko'p qirrali sintetik san'at turi hisoblanadi. Teatrni dramaturgiya, rejissura, aktyorlik san'ati, musiqa, raqs, badiiy jihoz kabi komponentlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Umuman olganda teatr san'ati ham bugungi kun kishisini o'z hayotida sog'lom muhit tashkil etishida muhim omillardan biri bo'lib kelmoqda. Teatrda asosiy vazifa – tomoshabin bilan teatr o'rtasidagi aloqani mustahkamlash.

Teatrda spektakllar namoyishi orqali tomoshabinlarga nimanidir aytadi, anglatadi. Bu orqali teatr ezgulik hissini yoshlarda shakllantirib boradi. Spektakl shunday ko'rinishdirki, uning yordamida insonlar bir-birlari bilan o'zaro ruhiy jihatdan munosabatga kirishib, o'zaro bir-birlariga ta'sir o'tkazadilar, bir-birlarini his qiladilar.

Tan olish kerakki, agar yosh tomoshabinlar teatrlari sahnasidagi aksariyat spektakllar jiddiy, ma'naviy boy tus olsa, yoshlar ularga darhol ergashavermaydi, yosh tomoshabin ushbu tomoshani hazm qilishi qiyinroq kechadi. Shu sababdan ham, yosh tomoshabinlar teatri targ'ibot ishini eng avvalo bolalar bog'chasidan boshlash kerak, bolalarni haqiqiy qadriyatlarga va sahnaviy madaniyat bilimlariga o'rgatish lozim. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida teatr jamoalarining sahnalashtirilgan spektakllar namoyishini kuzatamiz. Asosan yangi yil, Navro'z sayllarida ularning ijodiy ishlariga guvoh bo'lamiz. Aytib o'tish joizki, kichkintoylar faqat qorboboyu, qorqizlar, yalmog'izu ayiqpolvonlarning chiqishlari bilan cheklanib qolmasligi, ularga tarbiyaviy jihatdan muhimroq va saviyali kichik spektakllar namoyishi zarur. Bu borada dramaturgiyani ham mas'uliyatga chorlaymiz. Yoshlikdagi his tuyg'ular keyinchalik shakllanib borishi sir emas. Ezgulikning, adolatning va halollikning hamisha g'olib bo'lishi, ularda tarbiyaning ijobiy tomonlari ochilishiga sabab bo'ladi. Ertak qahramonlari deymizmi, yo bo'lmasam zamonaviy qahramonlarni ularni olib chiqish, o'rnak sifatida ko'rsatishimiz muhim masaladir. Shu o'rinda yosh tomoshabinlar teatri va qo'g'irchoq teatrlariga bir muncha mas'uliyatni yuklaymiz.

Xalq og'zaki ijodining eng yuksak namunalari bo'lmish doston va afsonalarning ma'naviyatdagi o'rni beqiyos. Ulardagi millatimizga xos bo'lgan ulug'vorlik, bag'rikenglik, oqillik, bunyodkorlik, yuksak g'urur va bahodirlik ifodasi kishida faxr tuyg'usini uyg'otadi. Jumladan, Sak qabilasining cho'poni Shiroq qahramonliklari ham dostonga aylanib yosh avlod ma'naviy dunyosining boyishida nihoyatda muhim o'rin tutadi.

Teatr tomoshalari orqali inson o'zini-o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, yoshlar imkoniyatini ro'yobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari etaklaydi. Xullas, teatr asarlarni sahnalashtirishda, spektakllarni ko'rsatishda tomoshabinlarni guruhlariga ajratgan holda ba'zi bir qoidalarga rioya qilinsa, ma'lum yutuqlarga erishilardi. Jumladan:

– Yosh tomoshabinlar spektakllarda nafaqat ijtimoiy hodisalar – tashqi voqelik jihatdan, balki asarning ichki ruhiy holati va mazmunan ham o'zligini his etsin. Mazkur jarayon o'quv tarbiya dasturlarining teatr ijodi bilan uzviyligi, ikki tomonlama aloqasi tufayli yuzaga keladi.

– Teatr ijodkorlari qahramonlarning dunyosini ochishda harakatlari, imo-ishoralar, mimika, pantomimika ustida ishtiyoq bilan shug'ullansalar, engil tabassum, iliq miyig'ida kulish, chiroyli yurish kabi mashqlarni amalga oshirsalar, tomoshabinlar bilan munosabatni to'g'ri yo'lga qo'yish imkoniyatiga erishadilar.

Bularga amal qilish orqali tomoshabinlarda yoqimli taassurot qoldirish, ularda mehr – muhabbat tuyg'usini uyg'otish va tomosha tanlash borasida imkon tug'diradi. Shu qatorda teatr san'ati yoshlarni ruhiy va ma'naviy jihatdan yuksaklikka erishishida, o'ziga bo'lgan ishonch tuyg'usini mustahkamlanishida yordam beradi. Respublika yosh tomoshabinlar teatri tarixi, spetsifik xususiyatlari ba'zi mutaxassislarining ishlarida o'z ifodasini topgan bo'lsa-da, biroq

mazkur teatrlarning zamonaviy muammolari, talab va ehtiyojlari, yoshlar auditoriyasining o'ziga xos jihatlari, yoshlar va teatrning bir-biriga ta'siri deyarli o'rganilmagan. Ayniqsa, ijodiy ishlarda yoshlar ehtiyojlari, intilishlari hisobga olinmayotganligi ko'plab jiddiy oqibatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bunday holat teatrlarning istiqboliga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, ilmiy tadqiqotlarda teatrlarning ijodiy faoliyati zamon talablari, tomoshabinlarning ehtiyojlari bilan bog'liq holda keng qamrovda qaralishi zarur. Xulosa o'rinda shuni aytish kerakki, yosh tomoshabinlar teatri yosh tomoshabinlarning auditoriyasini hisobga olgan holda bog'cha, maktab, kollej, akademik litseylarning o'quv dasturidagi asarlarni sahnalashtirishi maqsadga muvofiqdir. Bir tomondan o'quv darsligidagi asarlarning sahnaviy variantini ko'rish o'quvchining o'qish jarayoni ya'ni fan materiallarini o'zlashtirishga olib kelsa, ikkinchi tomondan o'quvchi bilimining yanada mustahkamlanishiga olib keladi. Boshqa tarafdin esa o'quvchilarning teatr bilan yanada yaqinlanishiga sabab bo'ladi. Shu qatorda o'quv dasturidagi asarlar asosida yozilgan pyesalardagi syujet, kompozitsiyasi ko'proq yosh avlodlar tarbiyasi va ularning hayotiga o'xshashligi, yaqinligi, uning ta'sirida yozilganligidan darak beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Stanislavskiy K. Собрание сочинений, 8 tomlik. 6-tom, M.: "Iskusstvo", 1959. – 466 b.
2. Toji Muhammad. Rejissyor. T.: Adabiyot uchqunlari, 2015. – 256 b.
3. To'laxo'jayeva M. Rejissyor izlanishlari // "Teatr" jurnali, 1999/1-2-son.
4. To'laxo'jayeva M. Rejissura izlanishlar yo'lida // "Teatr" j., 2008/4.
5. "Художественные и идеологические проблемы в репертуаре театра" Miasto Przyszłości Kielce 2023 (613-616)